O‘zbek tili

I qism

3



novda
edutainment

скачано с сайта www.idum.uz

Sh.T.Ahmetova
N.R.Normatova

O‘zbek tili

3-sinf

I qism

Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablar uchun darslik

Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan.



novda
edutainment

Toshkent – 2023

скачано с сайта www.idum.uz

Shartli belgilar:



Og‘zaki bajaring



Bilib oling!



Juft bo‘lib ishlang



Uyga vazifa



Yozma bajaring



Guruh bo‘lib ishlang



Eslab qoling!

1-topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

O‘zbekiston – mening Vatanim

Bizning Vatanimiz – O‘zbekiston. Biz shu yurtda tug‘ildik. Vatanimizda turli millat vakillari inoq yashaydilar. O‘zbekiston – serquyosh, go‘zal va boy o‘lka. O‘zbekistonda qadimiy shaharlar ko‘p. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari dunyoga mashhur.

O‘zbekistonning poytaxti – Toshkent shahri. U – katta va chiroyli shahar.



2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Vatan nima?
2. Sizning Vataningiz qanday?
3. Vataningizda qaysi millat vakillari yashaydi?
4. O‘zbekistonning qaysi qadimiy shaharlarini bilasiz?

1-mashq. Berilgan so‘zlarni tartib bilan qo‘yib, gaplar tuzing.

1. Yashayman, men, O'zbekistonda.
2. Vatanimiz, yurt, mustaqil, bizning.
3. Toshkent, poytaxti, O‘zbekistonning.
4. Vatanim, go‘zal, men, faxrlanaman, bilan.

Bilib oling!

Vatanimiz boyliklari

Yer usti boyliklari



Yer osti boyliklari




Maqollar

Vataning tinch – sen tinch.

Bulbul chamanni sevar,
Odam – Vatanni.

Vatansiz inson – kuysiz bulbul.

2-mashq. O'qing va so'zlardan gap tuzing.



Namuna: Mening Vatanim – O'zbekiston.

3-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Mening Vatan... (-i, -im) – O'zbekiston. O'zbekiston... (-ning, -da) poytaxti – Toshkent. O'zbekiston... (-ni, -da) qadimiy shaharlar ko'p. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari... (-ning, -da) nomi dunyoga mashhur.

3-topshiriq. She'rni ifodali o'qing va yodlang.

Ona diyor

Baxtiyormiz, quvnoqmiz,
Tabiatga o'rtoqmiz.
O'ynab-kulib, yayraymiz,
Bulbul bo'lib sayraymiz.

Allomalar beshigi,
Bag'ri dunyo eshigi,
Madhiyasi, qo'shig'i,
Mustaqil O'zbekiston!

Quchog'i bog'-u bo'ston,
Betakror, jannatmakon,
Seni tan oldi jahon,
Mustaqil O'zbekiston!

Nurulloh Oston

Uyga vazifa. "Mening Vatanim" mavzusida kichik matn tuzing.

Mehmondo'st o'zbek xalqi

1-topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

O'zbek xalqi – mehmondo'st xalq. Har bir mehmon e'zozlanadi, hurmat qilinadi. Kattalarga gap qaytarilmaydi. Kattalardan oldin ovqatga qo'l urilmaydi. Uyga mehmon kelganda to'rga o'tkaziladi va dasturxonga non qo'yiladi.

Bu xalqimizning eng go'zal udumlaridandir.

Muomala odobi

Xush kelibsiz.
Xushvaqt bo'ling.
Xush ko'rdik.
Marhamat, uyga kiring.
Marhamat, to'rga o'ting.
Bizning mehmonimiz bo'ling.
Sizni ko'rganimizdan xursandmiz.



2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz ham tez-tez mehmonga borib turasizmi?
2. Mehmon kelganda nima qilasiz?
3. Mehmonga borganda bolalar o'zlarini qanday tutishlari kerak?
4. Xalqimizning mehmon kutish urf-odatlarini bilasizmi?

1-mashq. Matnni o'qing. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib ko'chiring.

O'zbek palovining qirqdan ortiq ... bor. Bular: ... oshi, ... palov, Samarqand oshi, Xorazm palovi, ko'rma palov, mayiz palov va boshqalar. Har bir xonadonda tayyorlangan oshning o'zgacha ... bo'ladi. Tayyorlanish usuli ... har xil bo'ladi.

Osh – o'zbeklarning eng ... taomlaridan biri.

Foydalanish uchun so'zlar: ham, turi, to'y, mazasi, sevimli, choyxona.





2-mashq. Rasmlarni so'z bilan yozib, gaplarni ko'chiring.

Biz mehmon kutishni yaxshi ko'ramiz. Bizning  mizga mehmonlar ko'p keladi. Mehmonlar kelishidan oldin  yopamiz, chunki bu bizning udumlarimizdan biri. Men opam bilan , onam bilan mazali  tayyorlaymiz. Mehmon uyimizga kelganda "xush kelibsiz", deb kutib olamiz.

Maqollar

Mehmon – uyning ziynati.

Mehmon – otangdan ulug'.

Mehmon kelgan uyga baraka yog'iladi.

Mehmon izzatda, mezbon xizmatda.

Mehmon mezbonga aziz, mezbon – mehmonga.

Uyga vazifa. Maqollardan birini yodlang va mazmunini tushuntiring.

Obod mahallam

1-topshiriq. O‘qing va savollarga javob bering.

Mahalla so‘zi “o‘rin-joy” degan ma’noni bildiradi. Mahalla ham oilaga o‘xshaydi. Chunki bu joyda qo‘shnilar katta oila bo‘lib yashashadi. Bir-birlariga yordam berishadi. Biror muammo paydo bo‘lsa, o‘zaro maslahatlashib, hal etiladi. Mahalladagi oilalarga bir odam boshchilik qiladi. Uni oqsoqol deyishadi. Bu odam mahalla raisi hisoblanadi.

1. Mahalla so‘zi qanday ma’noni bildiradi?
2. Sizning mahallangizda qanday bayramlar nishonlanadi?
3. Siz o‘z mahallangiz raisini taniysizmi?

2-topshiriq. Matnni o‘qing va so‘zlab bering.

Har bir ko‘cha biror mahallaga qaraydi. Mahalla faollari har bir fuqaro haqida bilishlari kerak. Qiynalgan oilalarga yordam berishlari kerak. Mahallada turli ommaviy bayramlar o‘tkaziladi. Butun mahalla ahli birgalikda ish olib borsa, mahalla obod bo‘ladi, gullab-yashnaydi.



3-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Mahallangiz qanday nomlanadi?
2. Qo'shnilaringizni taniysizmi?
3. Keksa qo'shnilarga biror ishda yordam berganmisiz?


1-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib, maqollarni ko'chiring.

Yon qo'shni – jon ...
Yoningdagi qo'shni uzoqdagi qarindoshdan ...
Qo'shning tinch – sen ...
Bir bolaga ... qo'shni ota-ona.

Foydalanish uchun so'zlar: tinch, qo'shni, yetti, yaxshi.

Uyga vazifa. 2-topshiriqdagi matnni so'zlab bering va lug'at so'zlarni yodlang.





Bizning sinf

ustida, yonida, ichida, tepasida, tagida, orqasida, oldida, o'ngda, chapda

so'zlari

1-topshiriq. Matnni o'qing va so'zlab bering. Lug'at so'zlarni yodlang.

Bizning sinfimiz yorug'. Sinfda partalar va kitob javoni bor. Kitob javoni yonida doska bor. Televizor doskaning tepasida.

Sinfda 3 ta deraza bor. Deraza tokchasi ustida gullar bor. Javon tepasida globus bor. Kitob javoni ichida kitoblar ko'p.

Biz sinfimizni toza saqlaymiz.

Eslab qoling!

Old, orqa, ich, ust, yon, o'rta, tag, atrof, o'ng, chap, tepa so'zlari o'rin-joy, manzilning qayerda joylashganini bildirish maqsadida qo'llaniladi. Bu so'zlarga -da, -ga, -dan qo'shimchalari qo'shiladi.

Masalan: oldida, orqasida, ustiga, yoniga, tagidan, tepasidan.
Stolning ustida kitoblar bor. Javonning yonida eshik bor.

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Sizning sinfingiz qanday?
2. Sinfingizda nimalar bor?
3. Sinf doskasi qayerda joylashgan?
4. Kitob javoni ichida nimalar ko'p?

1-mashq. Qavs ichidagi so'zlardan gap mazmuniga mosini tanlang va gaplarni ko'chiring.

1. Sinfingizni doimo toza (arting, saqlang).
2. Nazorat ishi daftarlarini o'qituvchining stoli ustiga (bering, qo'ying).
3. Yangi lug'at so'zlarni daftaringizga (yozing, chizing).
4. Navbatchilar, sinf doskasini (yozing, arting).
5. Sinf doskasiga mashqni (sanang, yozing).
6. Poldagi qog'ozlarni chelakka (tering, soling).

2-mashq. Rasmlarni so'z bilan yozing va gaplarni davom ettiring.

 ga yangi jihozlar olib kelishdi. Doskaning tepasida  joylashgan.  ichiga kitob va daftarlarimiz qo'yilgan.  tepasida  ham bor. O'qituvchining  da daftarlar va ko'rgazmali qurollar turadi. Devorga  osilgan.  yonida chelak turibdi. Eshikning o'ng tomonida  bor.

Uyga vazifa. 1-topshiriqdagi matnni aytib bering. Lug'at so'zlar yordamida gaplar tuzing.

Sinf navbatchilari

1-topshiriq. Matnni o'qing va so'zlab bering. Lug'at so'zlarni yodlang.

Bizning sinfimizda o'quvchilar navbatchi bo'lishadi. Navbatchilar kelishlari bilan derazalarni ochib, sinfni shamollatadilar, partalarni artadilar. Deraza tokchasidagi gullarga suv quyadilar. Doskani artib, darsga tayyorlashadi.

Navbatchilar — ustozlarning yordamchilari.

2-topshiriq. Rasm asosida bir-biriga mantiqan bog'langan gaplardan matn tuzing.



1-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Sinfimiz katta va yorug'. Sinfimizda doska ... kitob javoni bor.
Doska ... televizor bor. Deraza ... gullar qo'yilgan.
Partalarning ... tomonida kitob javonlari bor.
Javon ... har xil kitoblar qo'yilgan.

Foydalanish uchun so'zlar: oldida, tepasida, yonida, orqa, ichiga.

Maqollar

Tozalik – sog'liq garovi.

Toza uyda dard qolmas.

Uyi tozaga gard yuqmas,
Gard yuqsa ham, dard yuqmas.



2-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.


O'quvchining daftari, kitob, ruchkalari stolning ... turibdi.
Kitoblar kitob javonining ... qo'yilgan.
Doskaning ... doska lattasi bor.
Eshikning ... kitob javoni turibdi.

Foydalanish uchun so'zlar: oldida, ustida, yonida, ichiga.

3-topshiriq. Rasmlar yordamida mavzu bo'yicha tuzilgan boshqotirma javoblarini toping.

1. Yerning shar shaklidagi kichik nusxasi.
2. Sinfni kislorodga to'yintiruvchi o'simliklar.
3. Sinfdagi kitob-daftarlar turadigan jihoz.
4. Yozuv taxtasi.
5. Yoniga o'tirib dars qilinadigan joy.
6. Ochganda toza havo kiradi.
7. Ustozning ish qurollari turadigan joy.

















Uyga vazifa. Berilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing:
ustida, tagida, ichida, oldida, yonida, orqasida.

Kuz keldi

1-topshiriq. Matnni o'qing va so'zlab bering. Lug'at so'zlarni yodlang.

Kuz fasli sentabr oyidan boshlanadi. Kuzda havo salqin bo'ladi va yomg'ir yog'adi. Daraxtlarning barglari sarg'ayib, yerga to'kiladi.

Dalalarda va bog'larda hosil yig'imi boshlanadi. Kuz faslining oxirida dehqonlar "Hosil bayrami"ni xursandchilik bilan nishonlaydilar.

Bu – ajoyib va go'zal fasl.

2-mashq. Berilgan so'zlardan foydalanib, gaplarni to'ldiring.

Kuzda respublikamizda ... , shirin-shakar ... , qovun-tarvuzlar pishadi. Dehqonlar yetishtirgan hosillarni ... oladilar. Kuz ... sentabr, oktabr va noyabr oylaridan iborat.

Foydalanish uchun so'zlar: fasli, bog'bonlar, mevalar, poliz ekinlari, yig'ib-terib.



2-topshiriq. Rasm asosida bir-biriga mantiqan bog'langan gaplardan matn tuzing.

Foydalanish uchun so'zlar: barglar sarg'aydi, havo salqin, o'qish boshlan... Mustaqillik bayrami.



1-mashq. Berilgan so'zlardan gaplar tuzing.

1. Bo'ladi, kuzda, salqin, kunlar.
2. Havo, kuz, bulutli, bo'ladi, yomg'ir, keyin, faslida, yog'adi.
3. Mustaqillik, kuzda, nishonlaymiz, bayramini.
4. Hosil, boshlanadi, dalalarda, yig'imi.
5. Yoqadi, fasli, kuz, menga.

2-mashq. Kuz mavzusida berilgan tayanch so'zlar asosida matn tuzing.

Foydalanish uchun so'zlar: kuz, iliq, bulut, shamol, hosil, sarg'aymoq.

Namuna:

Kuz keldi. Daraxtlarning barglari sarg'aydi.

Uyga vazifa. Lug'at so'zlardan foydalanib, kuz fasli haqida so'zlab bering. Lug'at so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Kuz keldi

Nima qildi? so'rog'i. *-di* qo'shimchasi

1-topshiriq. Matnni o'qing va savollar tuzing. Lug'at so'zlarni yodlang.

Kuz keldi. Kunlar salqin bo'la boshladi. Bog'da mevalar pishdi. Bog'bonlar terilgan mevalarni qutilarga joyladilar. Dehqonlar hosil yig'ishni boshladilar.

Yig'ib olingan meva va sabzavotlarni shaharga yubordilar.

Biz shaharliklar ulardan minnatdormiz.

1-mashq. Berilgan gaplarga mos qo'shimchalarni qo'yib yozing.

Dalada sabzavotlar... (-ni, -ga) yig'ib oldik. Bog'bonlar pishgan mevalar... (-da, -ni) terib oldilar. Yig'ilgan hosilni qutilar... (-ga, -da) joyladik. Kuzda yig'ilgan hosil omborlar... (-ga, -da) saqlanadi.



Kuz keldi
Nima qildi? so'rog'i. -di qo'shimchasi

Eslab qoling!

-di qo'shimchasi so'z o'zagiga qo'shilib, ish-harakatning o'tgan zamonda aniq bajarilganligini ifodalaydi. "Nima qildi?" so'rog'iga javob bo'ladi.

Masalan: Yomg'ir yog'di. Qushlar issiq o'lkalarga uchib ketdi.

2-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying. *-di* qo'shimchasining qo'llanilishiga e'tibor bering.

Bu ... (mening, bizning, sening) bog'imiz. Bog'da mevali daraxtlar ... (ko'p, bor, kam).

..., ..., ... (olma, chinor, nok, shaftoli) daraxtlari bor. Hozir ... (mevalar, olmalar) pishgan. Kecha men ... (olcha, tut, olma) terdim.

Menga ... (olma, olcha, gilos) yoqadi. Dadam uzumlarni ... (kesdilar, uzdilar, terdilar). Ularni qutiga ... (oldik, soldik, berdik).

3-mashq. Gaplarni davom ettiring.

1. Kuzda salqin ... .
2. Shirin mevalardan ... .
3. Dalada sabzi, ...
4. Biz sabzavotlardan ... .

4-mashq. Berilgan fe'llarga mos savollar berib ko'chiring.


1. Biz sabzavotlarni yig'dik.
2. Bog'bon pishgan mevalarni terdi.
3. Olma, nok va olxo'rini qutiga joyladik.
4. Dehqonlar dalada ko'p ishladilar.
5. Dehqonlar mo'l hosil yig'dilar.

5-mashq. Mashqdagi rasmlarni so'z bilan yozing.

Kuz faslida  da ishlar ko'paydi. Dehqonlar hamma yetilgan  yig'ib bo'ldilar. Yig'ib olingan hosilni  va  ga joyladilar. Keyin muzlatkichli omborlarda saqladilar. Yana  va  yubordilar.

6-mashq. Matn asosida savollar tuzing.

Menga oltin kuz fasli yoqadi. Men kuzgi daraxtlar barglarini oltin tangachalarga o'xshataman. Menga kuzda yomg'ir ostida sayr qilish yoqadi. Hamma yoq oltin rangga burkanadi. Kuz – chiroyli fasl.



Uyga vazifa. Qoidani yod oling va *-di* qo'shimchasi ishtirokida gaplar tuzing.

Vaqtni belgilashni o'rganamiz

Soat necha bo'ldi?

13.00 – soat bir bo'ldi.
13.10 – soat birdan o'n daqiqa o'tdi.
13.30 – soat bir yarim.
13.45 – soat birdan qirq besh daqiqa o'tdi (o'n beshta kam ikki).
13.50 – soat birdan ellik daqiqa o'tdi (o'nta kam ikki).



1-topshiriq. Suhbatni o'qing va tarjima qiling.

– Sen maktabga soat nechada borasan?
– Men maktabga soat 13.00 da boraman.
– Sen soat nechada uyga kelding?
– Men soat 18.00 da uyga keldim.
– Sen soat nechada darslarni bajarding?
– Men soat 19.00 da darslarni bajardim.



2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Sen soat nechada badantarbiya qilasan?
2. Sen maktabdan soat nechada kelasan?
3. Sen soat nechada tushlik qilasan?
4. Sen soat nechada darslaringni tayyorlaysan?

1-mashq. Mashqda berilgan vaqtni tartib bilan yozing.

1. Biz kechki ovqatni soat 19:00 da yeymiz.
2. Bolalar soat 21:00 da uxlashlari kerak.
3. Soat 07:00 da nonushta qilaman.
4. Soat 13:00 da tushlik qilaman.

Maqollar

Vaqting ketdi – baxting ketdi.

Vaqtdan yutding – baxtdan yutding.

Vaqtli harakat – oxiri barokat.

Vaqt – g'animat, o'tsa – nadomat.

Uch kun barvaqt turgan bir kun yutar.



2-mashq. Berilgan vaqtni so'z bilan yozing.

1. Ertalab soat 7:30 daqiqa o'tganda maktabga ketaman.
2. Soat 12:30 daqiqa o'tganda maktabdan kelaman.
3. Soat 16:00 da dars tayyorlayman.
4. Soat 19:00 da kechki ovqatni yeymiz.
5. Soat 21:30 daqiqa o'tganda uxlashga yotaman.

Soat

Bugun ertalab tursam,
Soat to'xtab qolibdi.
Meni uyg'otaman deb,
O'zi uxlab qolibdi.

Betob bo'lib qolibdi,
Yoki charchagan biroz?
Uni tuzata olar
Faqatgina soatsoz.

Fazilat Nosirova





Uyga vazifa. "Soat" she'rini yod oling va vaqt ishtirokida 5 ta gap tuzing.

Kun tartibim
Nima qiladi? so'rog'i

1-topshiriq. Matnni o'qing va lug'at so'zlarni yodlang.



Murod ertalab soat 7.00 da turadi. Keyin badantarbiya qiladi va yuvinadi. U soat 7.30 da nonushta qiladi. Keyin kiyinib, maktabga ketadi. Soat 7.45 da maktabga keladi. Dars soat 8.00 da boshlanadi. U maktabdan soat 12.30 da qaytadi. Soat 13.10 da tushlik qiladi. Murod 14.00 dan 15.30 gacha futbol mashg'ulotiga boradi. Soat 16.00 dan 18.00 gacha uy ishlarini bajaradi. U soat 19.30 da kechki ovqatni yeydi. Soat 20.00 da dam oladi. Soat 22.00 da yuvinib uxlaydi.

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Kun tartibi deganda nimani tushunasiz? Sizning ham o'z kun tartibingiz bormi?
2. Kun tartibi kishi salomatligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Inson tishlari uchun nima foydali va nima zararli deb hisoblaysiz?
4. Siz to'g'ri ovqatlanishni bilasizmi?
5. Sport bilan shug'ullanish odamga nima beradi?

1-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib, gaplarni yozing.

Aziz har kuni soat 6:00 da ... (keladi, turadi). Har doim badantarbiya ... (turadi, qiladi). Nonushtadan keyin maktab kiyimini ... (yechadi, kiyadi). Soat 7:30 da maktabga ... (qoladi, boradi). U maktabdan soat 13:00 da ... (keladi, qoladi). Uyda tushlik ... (ichadi, qiladi).

2-mashq. Quyidagi savollarga javob bering va javoblarni daftaringizga yozing.

1. Gulnora soat nechada maktabdan keladi?
2. Sardor soat nechada tushlik qiladi?
3. Aziz qachon dars tayyorlaydi?
4. Nodir soat nechada shaxmat to'garagiga boradi?
5. Malika qachon kechki ovqatni yeydi?
6. Madina soat nechada uxlashga yotadi?

3-topshiriq. Rasmlarni kun tartibiga moslab, matn tuzing.



4-topshiriq. She'rni ifodali o'qing.

Vaqt qadri

Buva nabirasini
Chaqirib der: – "Hoy, Boqi,
Yorib qo'y shaftolini,
Qishga bo'ladi qoqi".

Boqi der: "Jon bobojon,
Biroz o'ynab kelayin.
So'ngra kelib, siz aytgan
Ishlaringiz qilayin".

Boqivoy kech kirganda
Kirib keldi chang bo'lib.
Bobosi qarar unga
Asabi tarang bo'lib.

Boqi butun kunini
O'yin bilan o'tkazdi.
Oltinga teng vaqtini
Behudaga ketkazdi.

Abdulla Po'latov



Uyga vazifa. She'rni ifodali o'qing. Lug'at so'zlar yordamida gaplar tuzing.

Kiyim-kechaklar

1-topshiriq. Matnni o'qing va so'zlab bering.

Mening har xil kiyimlarim bor. Men ularni toza saqlayman. Maktabdan kelgach, kiyimlarimni qoqib, kiyim javoniga ilaman. Oyoq kiyimlarimni artib, joyiga qo'yaman. Onam bizning kiyimlarimizni yuvadilar. Men ko'ylagimni o'zim dazmollayman.

Men har doim kiyimlarimni ozoda kiyishni yaxshi ko'raman.

1-mashq. Rasmlar o'rniga kiyimlar nomini qo'yib, matnni yozing.

Men har doim ob-havoga qarab kiyinaman. Qishda qalin va , boshimga kiyaman. Oyog'imga kiyaman. Yozda esa yupqa va kalta kiyaman.









2-mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Onam menga ... ... olib bordilar. 2. Singlim ... ... kiydi. 3. M... kiydim. 4. Bobom ... so'radi. 5. Dadamning ... onam dazmolladi.

Foydalanish uchun so'zlar: chiroyli ko'ylagini, qora shim, do'ppisini, ko'ylagini, otigimni.



3-mashq. Lola onasining savollariga qanday javob berganini toping.

1. Qiz bolalar yozda qanday kiyim kiyadilar?
2. O'g'il bolalar-chi?
3. Qishda qanday kiyimlar kiyiladi?
4. Maktabdan kelib, kiyimlaringni qayerga ilasan?
5. Oyoq kiyimingni o'zing tozalaysanmi?

Topishmoqlar



Qulog'i bor – quyonmas,
Mo'ynasi bor – ayiqmas.
Qishda xizmat qiladi,
Har yozda dam oladi.



Erta turdi,
ikki ayri yo'lga tushdi.

Kunduzi himoya qiladi,
Kechasi javonda turadi.



Besh og'ayni, qo'rasi bor,
Xonasi boshqa.



Uyga vazifa. Qanday kiyinishingiz haqida so'zlab berishga tayyorlaning. Lug'at so'zlardan foydalanib, gaplar tuzing.

Kiyim-kechaklar
Egalik qo'shimchalari

1-topshiriq. Matnni o'qing va lug'at so'zlarni yodlang.

Biz yakshanba kuni oilamiz bilan kiyim do'koniga bordik. U yerda kattalar va bolalar uchun har xil kiyimlar bor edi. Do'kondagi kiyimlar bizga yoqdi. Otam onamga chiroyli yubka, menga shim va ko'ylak, singlimga pushti rangli ko'ylak olib berdilar. Biz hammamiz otamizga rahmat aytdik va xursand bo'lib uyga qaytdik.

Eslab qoling!

-m, -im, -ng, -ing, -si, -i, -miz, -imiz, -ngiz, -ingiz, -(lar)i – egalik qo'shimchalari.

Egalik qo'shimchalari shaxs yoki narsa-buyumning kimga tegishli ekanini bildiradi.

Tilda 3 ta shaxs bor:
I shaxs – so'zlovchi
II shaxs – tinglovchi
III shaxs – o'zga



2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Qaysi kiyimlar faqat qiz bolalar uchun?
2. Qaysi kiyimlar faqat qishda kiyiladi?
3. Qanday o'zbek milliy bosh kiyimini bilasiz?
4. O'zbek milliy kiyimlari qaysi matolardan tikiladi?

1-mashq. Berilgan gaplarga egalik qo'shimchalaridan mosini ... gaplarni yozing.

Biz ona... (-m, -ng) bilan kiyim-kechaklar do'koniga bordik. U ... qiz bolalar va o'g'il bolalar kiyimi ko'p ekan. Ota... (-miz, -m) me... shim va ko'ylak olib berdilar. Sizning kiyim... (-ingiz, -lari) qalinmi... Ularning kiyim... (-lari, -ng) yangi. Biz kiyim... (-imiz, -lari)ni toza saqlaymiz.

2-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib, gaplarni yozing.

Biz opam bilan kiyimlarimizni ... . Onam akamning ... dazmollaydi. Men kiyimlarimizni ... taxlayman. Bizning hamma ... javonda saqlanadi. Men oyoq kiyimimni ... .

Foydalanish uchun so'zlar: javonga, tozalayman, yuvamiz, shimini, kiyimlarimiz.

3-topshiriq. Filvorddagi kiyimlarning nomini toping.

X	Q	A	L	P	O	Q	H
K	O'	Y	L	A	K	W	N
Y	W	N	I	M	Ch	A	M
K	U	R	T	K	A	F	E
D	I	P	O'	S	T	I	N
Q	O'	L	Q	O	P	M	A

Uyga vazifa. -m, -ng, -si, -miz, -ngiz, -lari egalik qo'shimchalari ishtirokida gaplar tuzing.



Mehmonga keling

1-topshiriq. Matnni o‘qing va lug‘at so‘zlarni yodlang.

Bizning uyimizga mehmonlar ko‘p keladi. Bizga mehmonlarni kutib olish yoqadi.

Mehmonlar uchun oilamiz bilan birga turli ovqat, pishiriqlar va salatlarni tayyorlaymiz.

Dasturxonimizni chiroyli bezatamiz.

Kelgan mehmonga: “Xush kelibsiz uyimizga”, – deb aytamiz.

1-mashq. Quyidagi iboralar ishtirokida muomala odobiga oid gaplar tuzing.

Xush kelibsiz. Marhamat, uyga kiring. Marhamat, to‘rga o‘ting. Sizni ko‘rganimizdan xursandmiz.

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Siz mehmonga borasizmi?
2. Mehmonda o'zingizni qanday tutasiz?
3. Mehmonlar kelishiga qanday tayyorgarlik ko'rasiz?
4. Mehmonlar kelganda qanday so'zlarni aytasiz?
5. Mehmon kutishni yaxshi ko'rasizmi?

2-mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, matnni ko'chiring.

O'zbek ... mehmondo'st. Mehmon kutishni ... yoqtiradi. Mehmonga taklif qilib, mehmonlarni ochiq chehra bilan ... oladi. Kelgan ... hol ahvol so'raladi. Keyin dasturxonga ... qo'yilgach, ushatiladi va mazali ... taomlar bilan mehmon qilinadi.

Mehmondo'stlik yaxshi ... biridir.

Foydalanish uchun so'zlar: non, kutib, juda, xalqi, mehmondan, urf-odatlardan, milliy.

Maqollar

Mehmon kelgan uyning chirog'i ravshan.

Mehmon – uyning ziynati.

Mehmon mezbonga aziz,
Mezbon mehmonga laziz.

3-mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Biz buvimnikiga mehmonga ... (bordik, keldik). Buvim bizni mehmon ... (qildilar, bordilar). Men buvimga yodlagan she'rlarimdan ... (aytib, ko'rib) berdim. Onam bizga shirin tort ... (tayyorladilar, yedilar).

Foydalanish uchun so'zlar: non, kutib, juda, xalq, mehmondan, urf-odatlardan milliy.

Uyga vazifa. "Mehmonga keling" matni mazmunini so'zlab bering va lug'at so'zlarni yodlang.

Dasturxon atrofida

1-topshiriq. Matnni o‘qing va tarjima qiling.

Mehmonda o‘zini tutish qoidalari

Har bir odam dasturxon atrofida va mehmonga borganda o‘zini tutish qoidalariga rioya qilishi kerak. Dasturxon yoniga o‘tirishdan oldin qo‘lni yuvish kerak.

Ovqat paytida og‘izni to‘ldirib yeyish – xunuk odat. Ovqat chaynayotganda gapirish va kulish mumkin emas. Bu odobsizlik hisoblanadi.

1-mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.


Taomni shoshmasdan, yaxshilab chaynab ... kerak. Ovqatlanayotganda og‘izni yopib ... kerak. Og‘izdagi ovqatini ... bo‘lib, keyin gapirish kerak. Ovqatlanib bo‘lgach, ... deyishni unutmang!

Foydalanish uchun so‘zlar: rahmat, chaynash, yutib, yeyish.



3-topshiriq. Rasmlar asosida boshqotirmaning javobini toping.

1. Mehmon kelganda stolga solinadigan mato.
2. Dasturxonga birinchi qo'yiladigan mahsulot.
3. Katta likopcha.
4. Ovqat pishiriladigan idish.
5. O'zbek milliy taomi.
6. Go'shtli milliy pishiriq.





4-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Ovqatlanishdan oldin nima qilish kerak?
2. Ovqatdan oldin hamma bir-biriga nima deydi?
3. Ovqatlanish paytida nima qilish mumkin emas?
4. Qanday ovqatlarni sanchqi bilan yesa bo'ladi?

1-mashq. Gaplardagi rasmlarni so'z bilan yozing.

1. Biz mehmon kutishni yaxshi ko'ramiz. 2.  ga ko'p mehmonlar keladi. 3. Mehmon kelganda avval darsturxonga  qo'yiladi. 4. Issiq  uch marta qaytarilib, mehmonga uzatiladi. 5. Dasturxonga mazali  va  qo'yiladi.

Uyga vazifa. Lug'at so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. 1-topshirlqdagi matn mazmunini so'zlab bering.

Uyimiz oshxonasi
Qayerda? Nima bilan? so'roqlari

1-topshiriq. Matnni o'qing va so'zlab bering.

Bizning uyimiz oshxonasi toza va shinam. Oshxonada idishlar javoni bor. Javonda toza idishlar turadi. Oshxonada gaz plitasi, muzlatkich, elektr choynak, mikroto'lqinli pech, idish yuvish mashinasi bor. Biz oshxonadagi jihozlarni, maishiy texnikani va idishlarni toza saqlaymiz.

1-mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Biz oshxonada ovqatlanamiz va ovqat ... (pishiramiz, o'ynaymiz). 2. Men qovurilgan kartoshkani ... (sanchqi, qo'l) bilan yedim. 3. Bobom choyni ... (piyolada, kosada) ichdilar. 4. Singlim non bilan pishloq ... (yedi, kesdi). 5. Onam tortni ... (pichoqda, qoshiqda) kesdilar.



2-topshiriq. Savollarga javob bering.

– Sizning oshxonangiz qanday?
– Oshxonangizda qanday buyumlar bor?
– Oshxonangizda qanday texnik jihozlar bor?
– Ularni qanday saqlaysiz?

1-mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, matnni ko'chiring.

Men oshxonani tozalashda ... yordam beraman. Biz oshxonadagi ... tozalash vositalari bilan tozalab turamiz. Hamma idishlarimizni idish yuvish ... bilan toza yuvamiz. Gaz ... tozalash kukuni bilan tozalab turamiz. Opam ... ham tozalash vositasida yuvadilar.

Foydalanish uchun so'zlar: vositasi, polni, onamga, jihozlarni, plitasini.

3-topshiriq. Filvorddan oshxona buyumlari nomini toping.

P	I	Y	O	L	A	K
A	Ch	O	Y	N	A	K
L	I	K	O	P	Ch	A
Q	O	Sh	I	Q	T	A
S	A	N	Ch	Q	I	A
K	O	S	A	K	A	K
A	L	A	G	A	N	A
Q	O	Z	O	N	K	Q

Uyga vazifa. Rasmlardagi buyumlar nomini yozing va ular ishtirokida gaplar tuzing.



Sport – mening hayotimda
-a, -y qo'shimchalari

1-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering. Matn asosida savollar tuzing.

Sport bilan shug'ullanish tana uchun foydalidir. Chunki odam harakat qiladi, chiniqadi va sog'lom bo'ladi. Agar har kuni sport bilan shug'ullansak, baquvvat bo'lamiz. Organizmimiz chiniqadi, immunitetimiz oshadi. Sport bilan bolalikdan shug'ullanish zarur, shuning uchun men ham sport bilan shug'ullanaman.

O'rganganlarimizni yodga olamiz.

-a, -y, qo'shimchasi harakat va holatning gap aytilayotgan vaqtdan so'ng yoki muntazam yuz berishini ifodalaydi.

Masalan: Men basketbol bilan shug'ullanaman.
Akam shaxmat to'garagiga bormaydi.
Do'stim balandlikka yaxshi sakraydi.

1-mashq. Rasmlarni so'z bilan yozing va gaplarni to'ldiring.

1. Men  to'garagiga qatnashaman.
2. Mening do'stim  bilan shug'ullanadi.
3. Biz akam bilan  to'garagiga qatnashamiz.
4. Rustam  bo'yicha musobaqada 1-o'rinni egalladi.
5. Maktabimizda  to'garagi bor.
6. Biz sinfdoshlarimiz bilan  o'ynadik.

Sport – mening hayotimda
-a, -y qo'shimchalari

2-mashq. Savollarga javob bering.

1. Siz qaysi sport turlarini bilasiz?
2. Sizga qaysi sport o'yinlari yoqadi?
3. Qaysi sport turi bilan shug'ullanasiz?
4. Nima uchun sport bilan shug'ullanish kerak?
5. Qaysi sport turida tezkorlik talab etiladi?

3-mashq. Qaysi sport turida aqlni ko'proq ishlatish kerak?



Namuna:
Aql – ...
Qo'l – ...
Oyoq – ...
Kuch ko'proq kerak – ...

4-mashq. Berilgan gaplarga qo'shimchalardan mosini qo'yib, ko'chiring.

Men do'stlarim bilan futbol o'ynay... (-lar, -man). Akam basketbol bilan shug'ullana... (-miz, -di). Biz bolalar bilan ertalab yugura... (-man, -miz). Akmal kurash bo'yicha musobaqada qatnasha... (-lar, -di). Men ukamga shaxmat o'ynashni o'rgata... (-man, -san).

Uyga vazifa. Sevimli sport turingiz haqida matn yozib, so'zlab bering.

Sog‘ tanda – sog‘lom aql

Nima qilmoqda? so‘rog‘i. *-moqda* qo‘shimchasi

1-topshiriq. Matnni o‘qing va tarjima qiling.



Men taekvondo sporti bilan 5 yildan buyon shug‘ullanaman. Bizning murabbiyimiz sport ustasi. U mashg‘ulotlarda taekvondo harakatlarining texnikasini o‘rgatadi. Men 3 marta musobaqalarda qatnashib, 1- va 2-o‘rinlarni egalladim. Menga bu sport bilan shug‘ullanish yoqadi.

Men kelajakda jahon chempioni bo‘lishga harakat qilaman.

Eslab qoling!

Hozirgi zamon fe’li harakat nutq so‘zlab turilgan paytda davom etayotganini bildiradi. Bu fe’l -moqda, -yapti qo‘shimchalari yordamida yasalib, “nima qilmoqda?”, “nima qilyapti?” so‘roqlariga javob beradi.

Masalan: Men tez yugurmoqdaman. Biz sport bilan shug‘ullanmoqdamiz.

Birlik son	**Ko‘plik son**
Men suzmoqdaman.	Biz suzmoqdamiz.
Sen suzmoqdasan.	Siz suzmoqdasiz.
U suzmoqda.	Ular suzmoqdalar.

Maqollar

Boylikning boshi – sog‘liq.

Quyosh, havo – tanga davo.

El sog‘lig‘i – yurt boyligi.

Sog‘ tanda – sog‘lom aql
Nima qilmoqda? so'rog'i, -moqda qo‘shimchasi



1-mashq. So‘zlarga qo‘shimchalarning mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Men do‘stlarim bilan futbol o‘ynamoqda... (-lar, -man). Akam basketbol bilan shug‘ullanmoqda... (-miz, -lar). Biz bolalar bilan erta yugurmoqda... (-man, -miz). Akmal kurash bo‘yicha musobaqada qatnashmoq... (-lar, -da). Men ukamga shaxmat o‘ynashni o‘rgatmoqda... (-man, -san).



2-topshiriq. Savollarga javob yozing.

1. Siz qaysi sport turi bilan shug‘ullanmoqdasiz?
2. Kim sport to‘garagiga qatnashmoqda?
3. Sen, albatta, hovuzda suzish bo‘yicha kim bilan bellashmoqdasan?
4. Qaysi jamoa g‘olib bo‘lmoqda?
5. Sen qaysi sport majmuasida shug‘ullanmoqdasan?



3-topshiriq. Filvorddagi sport turlarining nomini toping.

k	u	r	a	sh	s	a	m	b	o
z	i	f	u	t	b	o	l	j	m
b	o	k	s	f	s	u	z	i	sh
sh	a	x	m	a	t	q	k	b	y
ch	b	a	s	k	e	t	b	o	l




4-topshiriq. Matnni o‘qing va savollar tuzing.

Odam sog‘lom bo‘lishi uchun tozalikka rioya qilishi shart. Ertalab turganda va ovqatdan keyin tishlarini tozalashi kerak. Ovqatdan oldin albatta qo‘llarni yuvish zarur. Bir haftada 2-3 marta cho‘milish foydalidir.

Meva va sabzavotlarni yeyishdan oldin yuvish kerak. Agar doimo tozalikka rioya qilsak, sog‘lom bo‘lamiz va aqliy faoliyatimiz ham yaxshi bo‘ladi.

2-mashq. **Rasmlarga qarang. Qaysi bola foydali ish bilan shug'ullanyapti? Nima uchun?**



1. Tishini tozalayapti. 2. Kir qo'li bilan ovqat yeyapti.
3. Kir kiyim kiygan. 4. Sochini tarayapti. 5. Badantarbiya qilyapti.
6. Changlarni artyapti. 7. Xonasi toza.

3-mashq. **Sport, salomatlik, ozodalik so'zlaridagi harflarga so'zlar toping.**

Namuna:

Sochiq
Palov
O
R
T

Uyga vazifa. **"Tozalik – salomatlik garovi" mavzusida matn yozing.**

Yovvoyi hayvonlar olami

1-topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Dunyoda yovvoyi hayvonlar juda ko‘p. Ular ochiq tabiatda, o‘rmonlarda, Shimoliy qutbda yashaydi. Yovvoyi hayvonlar yirtqich va o‘txo‘rlarlarga bo‘linadi. Yirtqich hayvonlar: yo‘lbars, sher, sirtlon, gepard, shoqol, ayiq, timsoh va boshqalar. Ular go‘sht yeydi.

O‘txo‘r hayvonlar: jirafa, fil, begemot, kiyik, bug‘u, kenguru, maymun, quyon va boshqalar. Ular o‘t, meva, sabzavot yeydi.

Yovvoyi qushlar ham bor. Bular: burgut, lochin, tovus, tuyaqush, pingvin.

Biz yovvoyi hayvon va qushlarni ham asrashimiz kerak.

1-mashq. Yovvoyi va uy hayvonlarini ikki ustunga ajratib yozing.

Yo‘lbars, sigir, kiyik, fil, qo‘y, ot, ayiq, it, tulki, echki, maymun, olmaxon, mushuk.



2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Yovvoyi hayvonlar necha turga bo'linadi?
2. Ular qayerda yashaydi?
3. Yovvoyi hayvonlar nima yeydi?
4. Qaysi hayvon tez yuguradi?
5. Oq ayiq, pingvin va dengiz mushuklari qayerda yashaydi?
6. Qaysi hayvon sichqonlardan qo'rqadi?


3-topshiriq. Rasmlarga qarab yovvoyi hayvonlarga ta'rif bering.

Foydalanish uchun so'zlar: katta, kichkina, badjahl, serharakat, uzun, ayyor, semiz.



4-topshiriq. Rasmlar yordamida mavzuga oid boshqotirma javoblarini toping.









1-mashq. Berilgan so'zlarni uch ustunga ajratib yozing.

Yirtqichlar	O'txo'rlar	O'simlik va jonivorlar bilan oziqlanadigan hayvonlar

Foydalanish uchun so'zlar: begemot, sirtlon, gepard, shoqol, jirafa, timsoh, kiyik, bug'u, kenguru, maymun, quyon, ayiq, burgut, lochin, tovus, fil, tuyaqush, pingvin, yo'lbars, sher.

5-topshiriq. Topishmoqlarning javobini toping.



Boshi bor-u, sochi yo'q,
Ko'zi bor-u, qoshi yo'q.
Tangasi bor, puli yo'q,
Qanoti bor, uchish yo'q.



Soqoli bor,
Mo'ylovi yo'q.



Baland bo'yi,
uzun bo'yni bor.
Qani toping,
qaysi jonivor?

Uyga vazifa. Sizga yoqadigan yovvoyi hayvon haqida ma'lumot topib, yozib keling.

Hayvonot bog'i
Qayerga? so'rog'i

1-topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

Shahrimizdagi hayvonot bog'i juda katta. Hayvonot bog'ida yovvoyi hayvonlar qafaslarda saqlanadi. Qafaslarga yaqin borib, hayvonlarga qo'lda ovqat berish mumkin emas. Bu hayot uchun xavflidir. Begemot va timsoh suvda yashaydi. Fil va jirafa qo'ra ichida, qolgan hayvonlar qafasda boqiladi. Qafas ichidagi maymunlar daraxtdan daraxtga sakraydi, qushlar esa shoxdan shoxga uchib sayraydi.

1-mashq. Javoblarga mos savollar tuzing.

– Yo'q, timsoh suvda suzadi.
– Ha, bo'ri yirtqich hayvon.
– Ha, kiyik o'rmonda yashaydi.
– Yo'q, jirafaning bo'yni uzun.
– Ha, olmaxon daraxtdan daraxtga sakraydi.



2-mashq. Rasmlarni so'z bilan yozing va gaplarni to'ldiring.

Saxiy ayiqpolvon

 o'rmondan  ini  ga to'ldirib, 
ga qaytayotgan edi. U charchaganini sezib,  ustiga o'
 dagi  dan mazza qilib yeb o'tirgan edi, o'rmondan
 chiqib qoldi.

– , ozgina  yesam maylimi? – deb so'radi tulki.

Uning ketidan   ni ko'tarib chiqdi.

– Menga ham ozgina  bering.

 lar orasidan  ko'targan  ko'rindi:

– Menga ham ozgina berasizlarmi?

 hamma jonivorlarni mehmon qildi.  bo'shadi.

Shunda u do'stlariga qarab:

– Tortinmanglar, do'stlarim, o'rmonda  juda ko'p, sizlarga yana terib beraman, – dedi saxiylik bilan.

Foydalanish uchun so'zlar: tulki, savat, tipratikan, to'nka, uy, qo'ziqorin, maymunjon, quyon, daraxt, ayiqpolvon.

Uyga vazifa. Lug'at so'zlarni yodlang. Hayvonot bog'i haqida so'zla bering.

Uy hayvonlari

1-topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

Bizning hovlimiz bor. Hovlimiz katta va chiroyli. Hovlida uy hayvonlari yashaydi.

Sigir yog‘li sut beradi. Itimiz uyni qo‘riqlaydi. Mushuk sichqonlarni tutadi. Ot yuk tashiydi. Buvim echki junidan paypoq to‘qiydilar. Yana qo‘ylarimiz ham bor. Ular ko‘p o‘t yeydi. Bizning hovlimizda parrandalar ham bor.

Biz ularni yaxshi parvarish qilamiz.

2-topshiriq. Savollarga javob yozing.

1. Sigir va echki nima beradi?
2. Qaysi hayvon sichqonlarni tutadi?
3. Qo‘y va ot nima yeydi?
4. Ot va eshak nima tashiydi?
5. Qaysi hayvon vafodor, uyni qo‘riqlaydi?



Eslab qoling!

-cha, -choq qo'shimchalari kichrayirish va erkalash ma'nosini bildiradi.

Uy hayvonlarining bolalari:

Qo'yning bolasi – qo'zichoq.
Otning bolasi – toychoq.
Sigirning bolasi – buzoqcha.
Echkining bolasi – uloqcha.
Itning bolasi – kuchukcha.
Mushukning bolasi – mushukcha.
Eshakning bolasi – xo'tikcha.
Quyonning bolasi – quyoncha.
Tuyaning bolasi – bo'taloq.

1-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib yozing.

Biz uyimizda it bilan mushuk ... . Itimizning laqabi Simba. U ..., ..., ... Simba biz bilan yugurib ... .

Yana mushugimiz ham bor. Uning laqabi Paxmoqvoy. U ..., ..., ... Paxmoqvoy sichqonlarni ... . Biz ularni ... . Doimo yaxshi ... .

Foydalanish uchun so'zlar: chaqqon, muloyim, yaxshi ko'ramiz, aqlli, qora, parvarish qilamiz, vafodor, kichkina, boqamiz, o'ynaydi, tutadi.

1-topshiriq. Filvorddan uy hayvonlarining bolalari nomini toping.

A	Q	O'	Z	I	Ch	O	Q	Q	W	F	G
V	I	N	E	T	O	Y	Ch	O	Q	M	K
B	U	Z	O	Q	Ch	A	J	G	F	D	A
C	D	F	K	U	L	O	Q	Ch	A	C	D
X	O'	T	I	K	Ch	A	E	R	T	Y	U
X	P	L	B	O'	T	A	L	O	Q	G	H

Uyga vazifa. "Mening sevimli uy hayvonim" mavzusida matn tuzing va so'zlab bering.

Uy parrandalari

1-topshiriq. Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

Bobom uyda parranda boqadilar. Biz bobomga yordam beramiz. Xo'roz, tovuqlarimizning jo'jalari bor. Biz ularga don beramiz. O'rdaklarimiz hovuzchada suzadi, ularning ham o'rdakchalari bor. O'rdaklarimiz o'tni yaxshi ko'radi.

Yana g'oz va kurkalarimiz ham bor. Biz doimo ularga yaxshi qarab, parvarish qilamiz.

Bilib oling!

Xo'roz, tovuqning bolasi – jo'ja.
O'rdakning bolasi – o'rdakcha.
G'ozning bolasi – g'ozcha.
Kurkaning bolasi – kurka jo'jasi.

Parrandalarning foydali tomonlari

Xo'roz, tovuq, o'rdak, g'oz, kurka → **tuxum, go'sht, pat beradi.**



2-topshiriq. Savollarga javob yozing.

1. Xo'roz ertalab nima qiladi?
2. Tovuq nima yeydi?
3. Jo'janing onasi kim?
4. O'rdak va g'oz qayerda suzadi?
5. Tovuq, o'rdak va g'oz nima beradi?

1-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.

Bizning tovug'imiz ... (tuxum, pishloq) beradi. O'rdak va g'oz ... (o't, don, sut) yeydi. Hovlidagi jo'jalar ... (don, yem, non) yeydi. O'rdaklar hovlimizdagi ... (hovuzchada, daryoda) suzadi. Men tovuq va kurkalarni yaxshi ... (boqaman, qarayman). Bugun tovug'imiz ... (tuxum, tosh) qo'ydi.

2-mashq. Har bir qatorga mos keladigan uy hayvonlari va parrandalar nomini yozing.

Tuxum va go'sht beradigan parrandalar:

Suvda suzadigan parrandalar:

Go'sht yeydigan hayvonlar:

Don yeydigan parrandalar:

O't va yem yeydigan hayvonlar:

Sut beradigan hayvonlar:

Uyga vazifa. Uy parrandalari nomlarini yodlang. Ulardan biri haqida gapirib bering.

Qish keldi

Kimning? so'rog'i

1-topshiriq. Matnni o'qing va so'zlab bering.

Qish fasli dekabr oyidan boshlanadi. Dekabr, yanvar, fevral – qish oylari. Qishda ob-havo sovuq bo'ladi va qor yog'adi. Hamma yoq oppoq qor bilan qoplanadi. Bolalar qishki o'yinlar o'ynashni yaxshi ko'radilar. Ular qorbo'ron o'ynaydilar. Qordan qorbola yasaydilar. Chanada uchadilar. Ular qish kelganidan xursand bo'ladilar.

1-mashq. Javoblarga mos savollar tuzing va suhbatni davom ettiring.

– Qishda ob-havo sovuq bo'ladi.
– Qishda qalin kiyimlarni kiyish kerak.
– Dekabr, yanvar, fevral – qish oylari.
– Qishda qorbo'ron o'ynashadi va qorbola yasashadi.
– Qish faslida Yangi yil bayrami nishonlanadi.
– ...



2-topshiriq. Filvorddan kiyimlar nomini toping.

q	a	l	p	o	q	e	t	i
h	i	k	o'	y	l	a	k	m
p	a	l	t	o	r	o'	m	o
t	o'	n	n	q	o'	l	q	o
b	o'	y	i	n	b	o	g'	ch

Topishmoqlar

Qishda unda bolalar,
Sirpanadi quvnashib.
Bir-birining ortidan
Qolmaydi hech quvlashib.





Rosa o'ynab qorbo'ron,
Uyimga kirdim shu tob.
Qo'llarim sovqotmadi,
Chunki bor edi ... .

Momiq, issiqdir o'zi,
Etigim bilan o'rtoq.
Kiysam uni bir zumda
Oyog'im isir shu chog'.





Qishda ham savlat to'kib,
Mag'rur turadi archa.
Oppoq libos kiydirdi
Yog'ib bugun ... .

Uyga vazifa. Egalik qo'shimchalari ishtirokida gaplar tuzing. -m, -ng, -si, -miz, -ngiz, -lari qo'shimchalariga oid qoidani yodga oling.

Yangi yil bazmiga tayyorgarlik *bilan* bog'lovchisi

1-topshiriq. Matnni o'qing va so'zlab bering.

Yangi yil bayrami qish faslida nishonlanadi. Hamma bir-biriga oldindan sovg'alar tayyorlaydi. Uylarimizni va maktabdagi sinflarni zarlar va rangli qog'ozdan yasalgan qor parchalari bilan bezatamiz. Har xil ertak qahramonlarining liboslarini kiyib, bayramda qatnashamiz. Qorbobo bolalar bilan o'ynab, ularga sovg'alar beradi.

Yangi yil bolalarning sevimli bayramlaridan biri hisoblanadi.

1-mashq. Berilgan so'zlardan foydalanib, savollarga javob yozing.

1. Qayerda archa bezatilgan?
2. O'yinchoqlar qayerga osilgan?
3. Qayerda sovg'alar ko'p?
4. Yangi yilni qayerda nishonlaysiz?
5. Yangi yil bazmi qayerda bo'ladi?

Foydalanish uchun so'zlar: qop, maktabda, uyda, maydonda, archa.

Eslab qoling!

Bilan **bog'lovchisi gapda so'zlarni bir-biriga bog'lash uchun qo'llaniladi.**

Masalan: Men akam bilan archani bezatdim.

2-mashq. Javoblar asosida savollar tuzing.

1. Biz uyimizda archani o'yinchoqlar bilan bezaymiz.
2. Bayramda Qorbobo bilan Qorqiz raqsga tushdi.
3. Bayramda hammamizga ajoyib sovg'alar berishdi.
4. Oilamiz bilan bayram tomoshasiga bordik.
5. Bayramda sinfdoshlarim bilan "Archa" qo'shig'ini aytdik.

Yangi yil bazmiga tayyorgarlik *bilan* bog'lovchisi

1-topshiriq. She'rni ifodali o'qing.

Yangi yil archasi

Buncha ham chiroylisan,
Yam-yashilsan har qachon!
Yangi yilning ko'rkisan,
Sevimlisan, archajon!

Qish boboning uyida
Aziz mehmon – ko'klamsan,
Bugun uning to'yida
Ayniqsa, soz – ko'rkamsan.

Ko'ylagingga juda ko'p
Zar tugmalar taqilgan.
Shoxlaringda qizil, ko'k
Chiroqchalar yoqilgan.

Bo'yim yetmas shoxing
Lekin, ey archajonim!
Tabelimda bor senga
Atab tizgan marjonim!

Senga deb tizgan marjon
A'lo baholarimdir.
Kel, taqib qo'yay, archam,
Shoxlaringni egib tur.

Erkin Vohidov



Uyga vazifa. "Yangi yil" she'rini va lug'at so'zlarni yodlang.

Yangi yil – oilaviy bayram
Qayerda? so'rog'i

1-topshiriq. Matnni o'qing va lug'at so'zlarni yodlang.

Yangi yil bayramini odamlar xursand bo'lib nishonlaydi. Bu bayram oilaviy bayram hisoblanadi, chunki bu bayramda hamma oila a'zolari yig'iladi. Oldindan uylarni va archani bezatamiz. Bayram kuni mazali salat va taomlar tayyorlab, dasturxonni bezaymiz. Dasturxonda turli ne'matlar bo'ladi. Bayramda hammaning kayfiyati yaxshi bo'ladi.

Eslab qoling!

Qayerda? **so'rog'iga javob beradigan so'zlar voqea-hodisalarning o'rin-joyini bildirish uchun qo'llaniladi.**

Masalan: Bayram dasturxonida mazali taomlar juda ko'p.

Qayerda?	Dasturxonda	Bayramda
	Archada	Hovlida
	Qopda	Uyda

1-mashq. Nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'ying.

1. Biz bayramga ... taklif qildik.
2. Mehmonlar bilan turli ... o'ynadik.
3. Uyimizga .... bilan ... kelishdi.
4. Biz Yangi yil haqida ... va ... aytdik.
5. Qorbobo bizga har xil ... berdi.
6. Biz ... bo'ldik.

Foydalanish uchun so'zlar: Qorbobo, she'r, mehmonlarni, Qorqiz, o'yinlarni, qo'shiqlar, xursand, sovg'alar.

Yangi yil – oilaviy bayram
"Qayerda?" so'rog'i

2-mashq. Rasmlar o'rniga so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Biz oilamiz bilan  bezatdik. Archada rangli  osilgan.

Archa tagida  bor. Men Qorboboga  yozdim.

 bolalarga sovg'a berdi.



Uyga vazifa. Lug'at so'zlarni yod oling. "Yangi yil" mavzusida matn tuzing.

Takrorlash

O'tilgan mavzular asosida savollarga javob bering.

1. Qaysi sport turi aqlni charxlaydi?
2. Qaysi sport turida yugurish kerak?
3. Yovvoyi hayvonlar qayerda yashaydi?
4. Qaysi hayvonlar suvda yashaydi?
5. Hayvonot bog'idagi yirtqich hayvonlar qayerda saqlanadi?
6. *-cha, -choq* qo'shimchalari qachon qo'llaniladi?
7. Qachon sovuq bo'ladi va qor yog'adi?
8. Qishda qanday kiyinish kerak?
9. Yangi yil qanday bayram?
10. Yangi yil bazmining mehmonlari kimlar?

Uyga vazifa. Chorak davomida o'tilgan so'zlarni eslang. O'zingizga yoqqan ertakni o'qib, so'zlab bering.

O'zbekiston – mening Vatanim

Vatan – Родина
shu yurtda – в этом краю
tug'ilmoq – родиться
millat vakillari – национальности
yashamoq – жить
serquyosh – солнечный
go'zal – прекрасный
boy – богатый
o'lka – край
qadimiy – древний
shahar – город
dunyoda – во всём мире
mashhur – известный
poytaxt – столица

Mehmondo'st o'zbek xalqi

xalq – народ
mehmondo'st – гостеприимный
mehmon – гость
yosh – лет
uning – его, её
hurmat qilmoq – уважать
e'zozlamoq – проявлять почтение
kattalarga – (к) взрослым
dasturxon – скатерть, дастархан
o'tirmoq – садиться
gap qaytarmay – не перекаясь
to'rga – на почётное место
qo'ymoq – ставить
udumlar – традиции

Obod mahallam

obod – благоустроенный
ko'cha – улица
faollar – активисты
fuqarolar – граждане
haqida – о (ком-то, чём-то)
bilmoq – знать
qiynalgan – нуждающийся
yordam bermoq – помогать
umumxalq – общенародный
o'tkazmoq – проводить
farovon – благосостоятельный

Bizning sinf

yonida – возле, рядом
tepasida – над (чем-то)
deraza tokchasi – подоконник
ustida – на (чём-то)
tozalikda – в чистоте
saqlamoq – беречь
o'ng tomonida – на правой стороне, справа
chap tomonida – на левой стороне, слева
ichida – внутри

Sinf navbatchilari

navbatchilar – дежурные
ochmoq – открыть
artmoq – вытирать
suv quymoq – поливать
darsga – на урок
ustozlar – учителя
yordamchilar – помощники
shamollatmoq – проветривать

Kuz keldi

kuz fasli – осень
boshidan – сначала
boshlanadi – начинается
havo – погода
kuzgi ishlar – осенние работы
qushlar – птицы
o'lkalar – края
uchib ketmoq – улетать
barglar – листья
sarg'aymoq – желтеть
yerga – на землю
to'kilmoq – опадать
oxirida – в конце
hosil – урожай
xursandchilik bilan – с радостью

скачано с сайта www.idum.uz

nishonlamoq – праздновать
ajoyib – удивительный
pishmoq – поспеть
bog'bon – садовник
joylaydilar – складывают
yig'moq – собирать
yig'ib olingan – собранный
shaharliklar – горожане
yuborishdi – отправили
minnatdormiz – мы благодарны

Vaqtni belgilashni o'rganamiz

soat necha bo'ldi? – который час?
soat – часы, время
necha – сколько
o'tmoq – проходить
daqiqa – минута
yarim – половина
nonushta – завтрак
tushlik – обед
kechki ovqat – ужин
uxlamoq – спать
to'xtab qolmoq – остановиться
uyg'otmoq – разбуди
betob bo'lmoq – заб
charchamoq – устав
soatsoz – часовщик

Kun tartibim

kun tartibim – мой распорядок дня
ertalab – утром
turadi – встаёт
keyin – потом, после
yuvinmoq – умываться
badantarbiya – зарядка
qilmoq – делать
nonushta qilmoq – завтракать
ketmoq – уходить
kelmoq – приходить
dars – урок
maktabdan – со школы
qaytmoq – возвращаться
tushlik qilmoq – обедать
mashg'ulot – занятия,
bajarmoq – выполнять
kechki ovqat – ужин
dam olmoq – отдыхать
uxlamoq – спать

Kiyim-kechaklar.

qoqmoq – встряхивать
ilmoq – вешать
oyoq kiyimlar – обувь
kirni yuvmoq – стирать
dazmollamoq – гладить
har doim – всегда
ozoda – чистый
o'zim – сам, сама
yaxshi ko'rmoq – любить
kiymoq – одевать
yechmoq – снимать
taxlamoq – складывать
ustimga – на себя
oyog'imga – на ноги
boshimga – на голову
bo'ynimga – на шею
qo'limga – на руки
nimcha – безрукавка
qo'lqop – перчатки, варежки
qalpoq – шапка, головной убор
ko'ylak – платье, рубашка
po'stin – шуба
kurtka – куртка
do'ppi – тюбетейка
to'n – чапан
shim – брюки
poyabzal – обувь

Mehmonga keling

mehmonga – в гости
kelmoq – приходить
bizning – наш, наша
mehmonlar – гости
kutib olmoq – встречать
yoqmoq – нравиться

pishiriqlar – печёные изделия
dasturxonimiz – наш стол (дастархан)
bezatmoq – украшать
xush kelibsiz – добро пожаловать
deb aytmoq – говорить

Dasturxon atrofida

atrofida – вокруг
to'ldirmasdan – не наполняя
o'zini tutmoq – вести себя
yeyish kerak – нужно есть
qoidalar – правила
ovqat yeganda – когда ешь
rioya qilish – соблюдать
gapirmoq – говорить
kerak – нужно
kulmoq – смеяться
odobsizlik – невоспитанность
ovqat paytida – во время еды
mumkin emas – нельзя
og'iz – рот
hisoblanadi – считается

Uyimiz oshxonasi

oshxona – кухня, столовая
elektr choynak – электрический чайник
uyimiz – наш дом
mikroto'lqinli pech – микроволновая печь
shinam – уютный
idish yuvish mashinasi – посудомоющая машина
idishlar javoni – шкаф для посуды
jihoz – мебель
turadi – стоит
tozalikda – в чистоте
gaz plitasi – газовая плита
saqlamoq – хранить
sovitkich – холодильник

Sport – mening hayotim

shug'ullanmoq – заниматься
odam uchun – для человека
chunki – потому что
harakat qilmoq – (здесь) двигаться
chiniqmoq – закаляться
sog'lom bo'lmoq – быть здоровым
agar – если
har kuni – каждый день
baquvvat – сильный
bo'lmoq – быть
oshadi – повышается
bolalikdan – с детства
zarur – необходимо
shuning uchun – поэтому
yugurmoq – бегать
boks – бокс
kurash – борьба
yengil atletika – легкая атлетика
suzish – плаванье
tennis – теннис
sakrash – прыгать

Sog' tanda – sog'lom aql

buyon – с какого-то времени
murabbiyimiz – наш тренер
sport ustasi – мастер спорта
mashg'ulot – тренировка
o'rgatmoq – обучать
5 marta – 5 раз
musobaqa – соревнование
qatnashmoq – участвовать
o'rin – место
egallamoq – занять
menga – мне
kelajakda – в будущем
bo'lishga – быть
harakat qilmoq – стараться
chempion – чемпион
odam – человек
sog'lom – здоровый
bo'lish uchun – для того чтобы быть
ovqatdan oldin – перед едой
albatta – обязательно

Yovvoyi hayvonlar olami

yovvoyi hayvonlar – дикие животные
fil – слон
olam – мир
kiyik – олень
dunyoda – в мире
bug'u – лось
tabiat qo'ynida – на природе
maymun – обезьяна
o'rmonda – в лесу
timsoh – крокодил
shimoliy qutbda – на северном полюсе
quyon – заяц
yashamoq – жить
yovvoyi qushlar – дикие птицы
yirtqich – хищник
burgut – орёл
o'txo'rlar – травоядные
lochin – ястреб
bo'linmoq (bu yerda: bo – делиться (здесь: де
tovus – павлин
yo'lbars – тигр
tuyaqush – страус
sher – лев
asrash kerak – нужно беречь
gepard – гепард
ayiq – медведь
shoqol – шакал

Hayvonot bog'i

qafasda – в клетке
qafas ichida – внутри клетки
boqmoq – кормить
sakramoq – прыгать
yaqin bormoq – приближаться
qushlar – птицы
boqmoq – кормить
sayramoq – пение птиц, чириканье
hayot uchun – для жизни
uchmoq – летать
xavfli – опасно
baliqlar – рыбы
suvda – в воде
suzmoq – плавать
maroqli – замечательно, интересно
qo'ra ichida – внутри ограды
qolgan – остальные

Uy hayvonlari va parrandalari

hovli – земельный участок
to'qimoq – вязать
bermoq – давать
qo'zichoq – ягнёнок
qo'riqlamoq – охранять
toychoq – жеребёнок
sichqon – мышь
buzoqcha – телёнок
tutmoq – ловить
uloqcha – козлёнок
yuk tashimoq – возить груз
kuchukcha – щенок
mushukcha – котёнок
junidan – из шерсти
quyoncha – зайчонок
xo'tikcha – ослик
uy parrandalari – домашние птицы
yordam bermoq – помогать
ularga – им
don – зерно
hovuzchada – в пруду
o'rdakcha – утёнок
yaxshi qaramoq – хорошо ухаживать (смотреть)
parvarish qilmoq – ухаживать
jo'ja – цыплёнок
o'rdakcha – утёнок
g'ozcha – гусёнок
kurka bolasi – индюшонок

Qish keldi

sovuq bo'ladi – бывает холодно
qor yog'adi – идёт снег
oppoq – белоснежный
qor – снег
bilan – (предлог) с
qoplanmoq – покрыться
qishki o'yinlar – зимние игры
qorbo'ron – снежки
qorbola – снеговик
yasamoq – лепить
chanada – на санках
uchmoq – кататься
qish kelganida – с наступлением зимы
xursand – радостно

Yangi yil bazmiga tayyorgarlik

nishonlamoq – отмечать
oldindan – заранее
sovg'alar – подарки
zarchalar – мишура
bezatmoq – украшать
she'r – стихотворение
qo'shiqlar – песни
ertak – сказка
qahramonlar – герои
qatnashmoq – участвовать
raqsga tushmoq – танцевать
bazm – празднество, вечеринка

Yangi yil – oilaviy bayram

quvonch – радость
kuzatmoq – провожать
daryo – река
omad – удача
g'alaba – победа
osmon – небо
baxt – счастье
sevmoq – любить
oilaviy – семейный
nomlanadi – называется
oila a'zolari – члены семьи
chunki – потому-что

Sózlik	Сөздік	Сөздүк	Луғат	Sözlük

скачано с сайта www.idum.uz

Mundarija

1-mavzu.	O'zbekiston – mening Vatanim	4
2-mavzu.	Mehmondo'st o'zbek xalqi	7
3-mavzu.	Obod mahallam	10
4-mavzu.	Bizning sinf	13
5-mavzu.	Sinf navbatchilari	15
6-mavzu.	Kuz keldi	17
7-mavzu.	Kuz keldi. *Nima qildi?* so'rog'i. -di qo'shimchasi	19
8-mavzu.	Vaqtni belgilashni o'rganamiz.	22
9-mavzu.	Kun tartibim. *Nima qiladi?* so'rog'i	24
10-mavzu.	Kiyim-kechaklar	27
11-mavzu.	Kiyim-kechaklar. Egalik qo'shimchalari	29
12-mavzu.	Mehmonga keling	31
13-mavzu.	Dasturxon atrofida	33
14-mavzu.	Uyimiz oshxonasi. Qayerda?, Nima bilan? so'roqlari	35
15-mavzu.	Sport – mening hayotimda *-a, -y* qo'shimchalari	37
16-mavzu.	Sog' tanda – sog'lom aql. *Nima qilmoqda?* so'rog'i. *-moqda* qo'shimchasi	39
17-mavzu.	Yovvoyi hayvonlar olami	42
18-mavzu.	Hayvonot bog'i. *Qayerga?* so'rog'i	45
19-mavzu.	Uy hayvonlari	47
20-mavzu.	Uy parrandalari	49
21-mavzu.	Qish keldi. *Kimning?* so'rog'i	51
22-mavzu.	Yangi yil bazmiga tayyorgarlik. *bilan* bog'lovchisi	53
23-mavzu.	Yangi yil – oilaviy bayram. *Qayerda?* so'rog'i	55
	Lug'at	57